

**GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA
BERUVCHI PhD.03/27.02.2020.Fil.91.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK KENGASH**

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

BEGISHEVA NAILYA RINADOVNA

**ZAMONAVIY YONDASHUVLAR ASOSIDA BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH
SINF O‘QITUVCHILARIDA RAQAMLI TA‘LIM KO‘NIKMALARINI
SHAKLLANTIRISH MEXANIZMI**

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta‘limotlar tarixi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Guliston – 2025

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Begisheva Nailya Rinadovna

Zamonaviy yondashuvlar asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida raqamli ta'lim ko'nikmalarini shakllantirish mexanizmi.....3

Бегишева Наиля Ринадовна

Механизм формирования цифровых образовательных навыков у будущих учителей начальных классов на основе современных подходов.....27

Begisheva Nailya Rinadovna

Mechanism for the formation of digital educational skills in future primary school teachers based on modern approaches.....51

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works56

**GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA
BERUVCHI PhD.03/27.02.2020.Fil.91.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK KENGASH**

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

BEGISHEVA NAILYA RINADOVNA

**ZAMONAVIY YONDASHUVLAR ASOSIDA BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH
SINF O‘QITUVCHILARIDA RAQAMLI TA‘LIM KO‘NIKMALARINI
SHAKLLANTIRISH MEXANIZMI**

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta‘limotlar tarixi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Guliston – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy Attestatsiya komissiyasida B2025.1.PHD/Ped8942 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Chirchiq davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Guliston davlat universiteti veb-sahifasining (www.guldu.uz) hamda "ZiyoNet" axborot-ta'lim portali www.ziynet.uz manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: Mavlanova Saidaxon Umarovna
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Rasmiy opponentlar: Mardonov Shukurullo Qo'ldoshevich
pedagogika fanlari doktori, professor
Holikulova Feruza Xasanovna
pedagogika fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot: Qarshi davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Guliston davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/27.02.2020.Fil.91.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "26" mart soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 120100, Guliston sh., 4-mavze. Tel.: (99 867) 225-40-42; faks: (99 867) 225-02-75; E-mail: glsu_info@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Guliston davlat universitetining Axborot resurs markazida tanishish mumkin. (05 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 120100, Guliston sh., 4-mavze. Tel.: (99867) 225-40-42).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "14" mart kuni tarqatildi.
(2025-yil "14" mart dagi 05 raqamli reyestr bayonnomasi).



M.R.Mamatqulov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

A.A.Axrorov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
kotibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent

F.G.Sharipov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi,
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda raqamli texnologiyalar insoniyat va borliqni bog'laydigan, shaxsiy va global muammolarni hal qilishga yordam beruvchi kuchga aylandi. Raqamli innovatsiyalar ta'limni boyitish, to'ldirish, o'zgartirish, shaxsiylashtirish imkoniyatini bermoqda. Raqamli ta'lim barqaror rivojlanish, ta'lim boshqaruvi, inklyuzivlik, universal va mobil o'rganish kabi afzalliklarga egaligi sababli toboro ta'lim oluvchilarni qamrab olmoqda. Pandemiya davrida yuzaga kelgan ijtimoiy, iqtisodiy, inqirozli vaziyatlarda raqamli texnologiyalar yordamida yechim topildi. Barcha sohalarni, jumladan ta'lim muassalarini ham karantinga olinishi sababli ta'lim berish, ta'lim olish, ta'limni tashkil etish va boshqarish masofaviy tarzda tashkil etildi. COVID-19 davrida dunyo bo'ylab raqamli ta'lim infratuzilmasiga ega bo'lmagan davlatlar o'quvchilarining uchdan bir qismi maktablar yopilishi sababli bir yildan ortiq vaqt davomida o'qish va o'rganishdan mahrum bo'ldi. Ta'limdagi mana shunday uzilishlar sabab zamonaviy maktab modelini yaratish, inklyuziv, ochiq va bardoshli ta'lim tizimlarini zamonaviy texnologiyalar va inson resurslarini integratsiyalangan holda ishlab chiqish dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

Dunyo miqyosida ta'limni qo'llab-quvvatlovchi xalqaro YUNESKO tashkiloti ta'limda raqamli innovatsiyalarni yaratish ta'limiy inqirozlar va ta'limiy yo'qotishlarni oldini oluvchi bosh omil sifatida baholadi. Ta'lim olish insoniyatning asosiy huquqi ekanligi sababli raqamli ta'lim sharoitini yaratish ijtimoiy zaruratga aylandi. "Ta'limda texnologik innovatsiyalar YUNESKO strategiyasi" (2022-2025-yillar) ga binoan "Open Educational Resources" ya'ni "Ochiq ta'lim resurslari (OTR)"ni yaratish loyihasini ishlab chiqdi.¹ OTR loyihasiga ko'ra hamma erkin foydalanishi mumkin bo'lgan o'quv materiallari, dasturlar, mobil ilovalar, raqamli kontentlar yordamida sifatli ta'lim olish, o'rganish, inklyuzivlikni rivojlantirish, raqamli ta'lim innovatsiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi. Raqamli texnologiyalar yordamida butun umr ta'lim olish imkonini beradigan va ta'lim tizimini tashkil etish monitoring qilish kabi maqsadlarga erishishda ta'lim oluvchi va ta'lim beruvchi raqamli savodxonlik va raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish ustida izlanishlar olib borishni taqozo etmoqda.

Mamlakatimizda ta'lim tizimini isloh qilish, xususan, boshlang'ich ta'limda zamonaviy yondashuvlarni qaror toptirish, talabalarning raqamli ta'lim ko'nikmalarini rivojlantirishga hamda globallashuv davri va bozor iqtisodiyotiga raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashga katta e'tibor qaratilmoqda. Xususan, respublikamiz Prezidenti tomonidan ta'kitlanganidek "Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo'lidan borish imkoniyatini beradi".² Moslashish sharoitida har tomonlama chuqur ilmiy-pedagogik nuqtai nazardan o'rganishni taqozo qiladi.

¹ Certified Copy of the Recommendation on Open Educational Resources (OER), United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization, Paris, 2020 y. p 59.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvarda Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasi. <https://uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidentishavkat-mirziyoyevning-oliy-25-01-2020>.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentyabrdagi PF-5538-son “Xalq ta’limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmonlari³; 2019-yil 16-yanvardagi PQ-4119-son “Ta’lim sifatini nazorat qilish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori⁴ mazkur faoliyat bilan bog‘liq boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlashda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Mamlakatimizda raqamlashtirish jarayoni, raqamli ta’limni tashkil etish va metodik ta’minotini yaratish bo‘yicha D.N.Mamatov, M.R.Fayziyeva, B.M.Suropov, M.S.Yunusova, L.M.Umarov, B.B.Elov, B.S.Samandarov, U.N.Taylakov kabi olimlar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan. Ta’lim muassasalari o‘qituvchilari va o‘quvchilarida metodik va kommunikativ kompetentsiyasini uzluksiz rivojlantirishda raqamli innovatsion ta’lim texnologiyalaridan foydalanish mavzusi K.T.Umaraliyeva, F.H.G‘afforov, U.X.Mingboyev, Z.E.Chorshanbiyev, A.E.Obidov, X.Sh.Kadirov, N.A.Niyazova, Sh.A.Abduraxmonovalar tadqiqot ishlari olib borgan. Oliy ta’lim muassasalari talabalarida kompyuterli modellashtirish, videodarsliklar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish kompetensiyalarini yanada rivojlantirish bo‘yicha M.Sh.Ahadov, P.X.Omanov, D.S.Sarimova, S.M.Jumaboyev, L.G.Babaxodjayeva kabi olimlar o‘z tadqiqotlarini olib borishgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH) mamlakatlarida ma’lumotni raqamlashtirish, infratuzilmaviy boshqaruv hamda raqamli iqtisodiyotga mos keladigan shaxsni tayrlash, raqamli texnologiyalarga egalik qilish va ularni kasbiy faoliyatda qo‘llash masalalarida A.Marey, E.L.Vartanova, M.I.Makseyenko, S.S.Smironov, O.N.Astafyeva, L.V.Shmelkova, A.V. Keshelava, V.G.Budanov, V.Y.Rumyansev tomonidan tadqiq etilgan. Raqamlashtirish nazariyasi va amaliyoti, raqamli ta’lim konsepsiyasi, Raqamli universitet integral metodologik asoslari A.V.Pesha, T.A.Lapina, M.N.Shavrovskaya, E.V.Orskiy, L.A.Grinyevich, Y.V.Neborskiy, N.A.Burmistrova, N.V.Vasina, V.A.Filimonov tomonidan tadqiq etilgan.

³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentyabrdagi PF-5538-son “Xalq ta’limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. – Toshkent, 06.09.2018.

⁴ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. – Toshkent, 29.04.2019.

Xorijlik olimlardan Jahonda Oliy ta'limda raqamli ta'lim ko'nikmalari, shaxslarning raqamli savodxonlik ko'nikmalarini rivojlantirish masalalari Fondevila Gascón, Joan Francesc, Y. Zhao, Sanchez Go'mez, Pinto Llorente, L.Zhao. M.Nunes-Kanal., de Obesso M.M., K.A.Peres-Rivero; raqamli savodxonlikning tarkibiy qismlari, raqamli madaniyatning ta'limga ta'siri, o'smirlar va ota-onalarda raqamli kompetensiyani shakllantirish H.Jenkins, K.Klinton, R.Purushotma, T.S. Foulger, K.Dj.Gratsiano, D.Shmidt-Krouford, D.A.Slixey's tadqiqotlarida o'rganilgan.

Axborot texnologiyalari, ta'lim jarayonini avtomatlashtirish, axborot xavfsizligini ta'minlash, ta'lim tizimini raqamlashtirish bosqichiga ishonchli o'tish va iqtisodiyotni raqamli o'zgartirishni ta'minlash zarur. Ta'lim tizimini raqamli transformatsiya orqali modernizatsiya qilish ta'lim jarayonlarini rivojlantirish, ta'limni boshqarish strategiyalarini amalga oshirish, o'quv materiallarini individual talablar asosida moslashtirish bo'yicha yangi talablarga javob beradigan innovatsion o'qitish texnologiyalaridan foydalangan holda zamonaviy raqamli ta'lim muhitini yaratishni taqozo etadi. Bugungi globallashtirish davrida ta'lim jarayonini raqamlashtirish hamda talabalarda raqamli savodxonlikni shakllantirish masalalarini ilmiy asosda o'rganish zarurati mazkur dissertatsiya tadqiqoti mavzusini belgilab berdi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika institutining "Pedagogik ta'lim innovatsion klasterining ilmiy-nazariy asoslari va amaliy mexanizmlari" (2018-2021) mavzusidagi strategik ilmiy tadqiqotlar rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi zamonaviy yondashuvlar asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida raqamli ta'lim ko'nikmalarini shakllantirish mexanizmini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini raqamli ta'lim ko'nikmalarini shakllantirishning nazariy-pedagogik asoslarini o'rganish;

zamonaviy yondashuvlar asosida raqamli ta'lim ko'nikmalarini shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlarini aniqlash;

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida raqamli ta'lim ko'nikmalarini shakllantirishning funksional modelini yaratish;

mustaqil ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida raqamli ta'lim ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha uslubiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyektini sifatida zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida raqamli ta'lim ko'nikmalarini shakllantirishning jarayoni belgilanib, tajriba-sinov ishlarida Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Nukus davlat pedagogika instituti va Alfraganus universitetining 418 nafar boshlang'ich ta'lim yo'nalish talabalari ishtirok etdi.

Tadqiqotning predmetini bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida raqamli ta'lim ko'nikmalarini shakllantirishning ilmiy-pedagogik asoslarini

takomillashtirishning ustuvor tamoyillari, samarali usullari, mazmuni, shakl va vositalari tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda nazariy (qiyosiy-taqqoslash, modellashtirish, tahliliy-sintetik), diagnostik (so‘rovlar, test, kuzatish, suhbat), prognostik (ekspert baholash, mustaqil baholarni umumlashtirish), pedagogik eksperiment va matematik (ma’lumotlarni statistik qayta ishlash, natijalarni grafik tasvirlash) usullar majmuidan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida raqamli ta‘lim ko‘nikmalarini shakllantirishning nazariy-pedagogik asoslari va didaktik imkoniyatlari kasbiy kompetentlikning tarkibiy qismlarini maqsadli parametrlarga ko‘ra qiyosiy darajalash hamda xalqaro raqamli ta‘limiy innovatsiyalarni implementatsiyalash asosida dalillangan;

zamonaviy yondashuvlar asosida raqamli ta‘lim ko‘nikmalarini shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari obyektiv va subyektiv omillari, mezonlari shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim texnologiyasidan real ta‘limiy sharoitda foydalanishda, o‘rganishdan o‘rgatishgacha tamoyillari hamda “smartland” texnologiyalari asosida aniqlangan;

bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida raqamli ta‘lim ko‘nikmalarini shakllantirishning funksional modeli universallik va normativlik tamoyillarini maqsaddan natijaga yo‘naltirish hamda metodologik, tashkiliy, didaktik va natijaviy komponentlarning izchilligini modellashtirish usuli orqali modifikatsiyalash asosida isbotlangan;

boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi talabalarida mustaqil ta‘lim jarayonida raqamli ta‘lim ko‘nikmalarini ta‘limga oid mobil ilovalar, “Raqamli ta‘lim topshiriqlari dasturi” asosida shakllantirish bo‘yicha ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan va tashkiliy-metodik ta‘minoti yaratilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini raqamli ta‘lim ko‘nikmalarini shakllantirishning nazariy-metodologik asoslari, texnologiyalari, mazmuni, shakllari, metodikalari va mexanizmlari takomillashtirilgan;

zamonaviy yondashuvlar asosida raqamli ta‘lim ko‘nikmalarini shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari obyektiv va subyektiv omillari hamda mezonlari shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim texnologiyasidan real ta‘limiy sharoitda foydalanish usullari aniqlangan;

bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida raqamli ta‘lim ko‘nikmalarini shakllantirishning funksional modelini modellashtirishning universallik va normativlik tamoyillarini maqsaddan natijaga yo‘naltirish hamda metodologik, tashkiliy, didaktik va natijaviy komponentlarning izchilligini modellashtirish usuli orqali modifikatsiyalash asosida optimallashtirilgan;

boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi talabalarida mustaqil ta‘lim jarayonida raqamli ta‘lim ko‘nikmalarini Smartland texnologiyalar, ta‘limga oid mobil ilovalar, “Raqamli ta‘lim topshiriqlari dasturi” asosida shakllantirish bo‘yicha

ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan va tashkiliy-metodik ta'minoti yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoni o'rganishda falsafiy, metodologik, metodik, pedagogik va psixologik yondashuvlarga hamda bolalar nutqini rivojlantirish bo'yicha olib borilgan respublikamiz va chet ellik olimlarning tadqiqot ishi natijalariga asoslanganligi, tadqiqot maqsadi va vazifalariga mos keluvchi, o'zaro bir-birini to'ldirib boruvchi tadqiqot metodlarining qo'llanilganligi, tahlil va tadqiqot tavsifining miqdor, shuningdek, sifat jihatidan ta'minlanganligi, tajriba-sinov ishlarining reprezentativligi hamda olingan natijalarning matematik-statistik tahlil metodlari yordamida qayta ishlanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi hamda olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati taklif etilgan model, texnologiya va ishlanmalar, zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida raqamli ta'lim ko'nikmalarini shakllantirishdagi ahamiyati, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy kompetentligi va raqobatbardoshligini oshirishda raqamli ta'lim ko'nikmalarining roli, dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarni shaxsga yo'naltirilgan ta'lim asosida tashkil qilishning pedagogik omillari asoslanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati boshlang'ich ta'lim o'quv rejasidagi fanlar bo'yicha o'quv dasturlari, o'quv qo'llanmalari va darsliklarini ishlab chiqishda, zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida raqamli ta'lim ko'nikmalarini shakllantirish, boshlang'ich ta'lim mazmunini milliy va umummadaniy namunalar vositasida boyitish, "Alifbe", "O'qish" va "Tarbiya" fanlari mazmunida mavzulararo integratsiyani ta'minlash va muvofiqlashtirishda yaratilgan texnologiya, dasturiy ta'minot va interfaol amaliy mashg'ulot ishlanmalaridan foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida raqamli ta'lim ko'nikmalarini shakllantirishning ilmiy-pedagogik asoslarini takomillashtirish bo'yicha erishilgan ilmiy natijalar asosida:

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida raqamli ta'lim ko'nikmalarini shakllantirishning nazariy-pedagogik asoslari va didaktik imkoniyatlari kasbiy kompetentlikning tarkibiy qismlarini maqsadli parametrlarga ko'ra qiyosiy darajalash hamda xalqaro raqamli ta'limiy innovatsiyalarni implementatsiyalash asosida takomillashtirishga oid tavsiyalardan O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan PZ20170929789-raqamli "O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarining o'quv jarayonidagi ilg'or pedagogik ya zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni takomillashtirish mexanizmlarini ishlab chiqish" mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (O'zbekiston Milliy universiteti 2024-yil 11-dekabrda №04/11-12966-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, zamonaviy

pedagogik yondashuvlar asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini raqamli ta'lim ko'nikmalarini oshirishdagi rolini ilmiy asoslashga xizmat qilgan;

zamonaviy yondashuvlar asosida raqamli ta'lim ko'nikmalarini shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari obyektiv va subyektiv omillari, mezonlari shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasidan real ta'limiy sharoitda foydalanishda, o'rganishdan o'rgatishgacha tamoyillari hamda "smartland" texnologiyalari asosida takomillashtirishga oid taklif va tavsiyalar O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan FZ2020010829-raqamli "Talaba yoshlar ilmiy faoliyatida amaliy ko'nikmalarni shakllantirishning innovatsion mexanizmlari" mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (O'zbekiston Milliy universiteti 2024-yil 11-dekabrda №04/11-12965-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, zamonaviy yondashuvlar asosida raqamli ta'lim ko'nikmalarini shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari obyektiv va subyektiv omillari hamda mezonlari shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasidan real ta'limiy sharoitda foydalanish texnologiyasini takomillashtirishga xizmat qilgan;

bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida raqamli ta'lim ko'nikmalarini shakllantirishning funksional modeli universallik va normativlik tamoyillarini maqsaddan natijaga yo'naltirish hamda metodologik, tashkiliy, didaktik va natijaviy komponentlarning izchilligini modellashtirish usuli orqali modifikatsiyalash asosida optimallashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalardan O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan A-OT-2021-461-raqamli "Umumta'lim muassasalarida moliyaviy savodxonlik asoslari va qimmatli qog'ozlar bozorini o'rganish bo'yicha multimedia texnologiyalariga asoslangan o'quv kursi platformasini yaratish" mavzusidagi amaliy loyihasi amalga oshirishda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy universiteti 2024-yil 1-dekabrda №04/11-12964-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, boshlang'ich ta'lim fanlarini integratsiyalash asosida o'qitishning amaliy mexanizmlari bo'yicha ilmiy asoslangan xulosalarni keng o'qituvchilar ommasiga yetkazishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 15 ta ilmiy ish, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 10 ta ilmiy maqola, jumladan, 5 tasi respublika va 5 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 151 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertasiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti aniqlangan, shuningdek, tadqiqot ishining fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarining amaliyotga joriy etilishi, e'lon qilinganligi, ishning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **“Zamonaviy yondashuvlar asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida raqamli ta'lim ko'nikmalarini shakllantirishning nazariy-metodologik asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida ta'limni raqamlashtirish nazariyasining ilmiy asoslari, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida zamonaviy yondashuvlar asosida raqamli ta'lim ko'nikmalarini shakllantirishning zarurati, zamonaviy yondashuvlar asosida raqamli ta'lim ko'nikmalarini shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari tahlilga tortilgan.

Raqamli ta'lim – ta'lim jarayoniga yordam beradigan va aniq natijalarga olib keladigan o'quv amaliyotidir. U nafaqat raqamli ta'lim vositalar orqali o'quv jarayonini davom ettirish, balki ta'lim sifatini va samarasini yanada oshirishga xizmat qiladi. O'quv jarayoniga raqamli ta'limni joriy qilinishi axborot texnologiyalaridan foydalanish asosida amalga oshiriladi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari boshlang'ich sinf o'qituvchisi innovatsion faoliyatining asosiy mexanizmlaridan biri hisoblanadi. Globallashtirish jarayoni tezkorlikda yuksalish tamoyiliga amal qiladi. Insoniyat yaratilishi va jamoalarning paydo bo'lishi, axborot almashish, muloqotda bo'lish, ijtimoiylashuv jarayonida yuzaga kelayotgan ehtiyojlarni hal etish zarurati raqamlashtirishni paydo qildi. Insoniyat hayotida axborot almashish uchun yanada komfortlikni yaratishga bo'lgan ehtiyojning oshishi raqamlashtirish jarayonini tezlashtirib yubordi. Raqamlashtirish ijtimoiylashuv jarayonining ajralmas qismi. Raqamlashtirish jarayoni insoniyat tarixida simli va simsiz telefon, televidenie, radio ko'rinishida kirib kelgan bo'lsa, hozirda raqamlashtirish iqtisod, tibbiyot, soliq, sug'urta, xizmat ko'rsatish, savdo, ta'lim, ishlab chiqarish sohalarida asosiy faoliyatni tashkil etish richagi vazifasini bajarmoqda.

A.Marey fikricha, “raqamlashtirish – bu bizning fikrlash tarzimiz, harakatimiz, atrof-muhit va bir-birimiz bilan aloqa qilishimizning paradigmalar o'zgarishi”. Ya'ni, raqamlashtirishni aloqa va o'zaro munosabat paradigmasining o'zgarishidir. E.L.Vartanova, M.I.Makseyenko, S.S.Smironovlar ta'kidlashlaricha, raqamlashtirish “bu nafaqat ma'lumotni raqamlashtirish, balki infratuzilmaviy, boshqaruv, xulq-atvor, madaniy tabiatning kompleks yechimi”. Ya'ni, Internet va mobil aloqani rivojlantirish raqamlashtirishning asosiy texnologiyalari degan xulosaga kelishimiz mumkin. Bugungi kunda axborot va bilim jamiyat taraqqiyotining asosi bo'lib, unga an'anaviy tushunchalar va modellar qo'llanilmaydi. L.V.Shmelkova ta'kidlaganidek, raqamli iqtisodiyotga mos

keladigan shaxsning eng muhim xususiyati bu raqamli texnologiyalarga egalik qilish va ularni kasbiy faoliyatda qo'llashdir. Raqamli texnologiyalar, bir tomondan, ishlab chiqarish hajmi va samaradorligini yanada oshirishga yordam beradi, boshqa tomondan, ular turli sohalarida individual yondashishga imkon beradi. Raqamlashtirish tushunchasi "raqamli vositalar yordamida aloqa, yozuv, ma'lumotlarni uzatishning raqamli usuli"dir.

Hozirgi vaqtda "raqamlashtirish" atamasi tor va keng ma'noda qo'llanilmoqda. Tor ma'noda raqamlashtirish axborotning raqamli shaklga aylanishini anglatadi, bu ko'p holatlarda xarajatlarning pasayishiga, yangi imkoniyatlarning paydo bo'lishiga olib keladi. Keng ma'noda "raqamlashtirish" jarayoni, odatda, raqamli texnologiyalarni keng qo'llash va assimilyatsiya qilish tashabbusi bilan boshlangan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishni anglatadi. Unga axborotni yaratish, qayta ishlab almashish va uzatish texnologiyalari kiradi. Raqamlashtirish pedagogning kasbiy mahoratini oshirish bilan birga pedagogning yaratuvchilik qobiliyatini shakllantiradi, raqamlashtirish asosida pedagogning mobilligi-moslashuvchanligi ortadi hamda qulay ta'lim olish va o'rganish muhitini yarata oladi.

Bo'lajak pedagoglarni raqamlashtirish jarayonida faolligini oshirishda quyidagilarni inobatga olish tavsiya etiladi:

- xabardorlik: axborotlashayotgan jamiyat va virtual olamdagi hamda ta'lim tizimidagi yangiliklar va islohotlardan xabardor bo'lish;

- tahlillash: globallasuv inqilobi va tobora cheksizlikka ega bo'lib borayotgan axborotlarni muhimlik darajasi, kasbiy va shaxsiy rivojlanish trayektoriyasiga tayanib tahlil qilish;

- tayyorlik: muhim va muhim emas, kerak va kerak emas tamoyillariga tayanib axborotlarni saralashga tayyorlik;

- yaratish: o'qish va o'rganish, o'qitish va o'rgatishga hamda shaxsiy va ijodiy rivojlanish uchun asos bo'ladigan vizual-kreativ kontentlar yaratish;

- tashkil etish: makon va zamon, vaqt va joy tanlamagan vaziyat, ya'ni qulay ta'lim olish jarayonini tashkil etish;

- o'z o'rniga ega bo'lish: talim berish jarayonida hamda ta'lim iste'molchilari va ijtimoiy qatlam vakillarini ta'limiy rivojlantirishda o'z imidji ishlab chiqish va o'z o'rniga ega bo'lish;

- shakllantirish: axborotlashgan jamiyatda axborotlar bilan ishlash etiketini shakllantirish, ma'lumotlarni olish va saqlash, tanlash va tahrirlash, takrorlash va tayyorlash, taqdim etish va integratsiya qilish madaniyatini shakllantirish;

- o'sish: doimiy o'zgarib, yangilanib borayotgan ta'lim sharoitida raqamlashtirish asosida kasbiy va shaxsiy o'sish;

bashorat qilish: ta'lim jarayonini modellashtirish, loyihalashtirish raqamlashtirish hamda kasbiy faoliyatida kutiladigan natijalarni oldindan ko'ra olish.

Raqamlashtirilgan ta'lim muhitini yaratish jarayonida tadqiqot ishining obyekt sifatida olingan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari bo'lgan talabalar

global axborot va raqamli ta'lim makoniga kirishi ya'ni "axborot texnologiyalari", "kompyuter texnologiyalari" bilan bog'liq jarayonlarni nafaqat tushunishi, hamda qo'llay olish ko'nikmasiga ega bo'lishi kerak. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari bo'lgan talabalarda kasbiy mobillikka ega bo'lishda "axborot texnologiyalari" va "kompyuter texnologiyalari"dan rejalashtirilayotgan dars jarayonini tashkil etishda samarali foydalanish "texnologik innovatsiya"ni paydo qiladi. Bo'lajak pedagoglarda raqamli ko'nikmalarini shakllantirish natijasida talabalarda kasbiy mobillik paydo bo'ladi. Raqamli ko'nikmalar raqamlashtirilgan ta'lim obyektlari va subyektlari bilan munosabatga kirisha olish, raqamlashtirilgan talim kontentlarini yaratish, raqamlashtirish jarayonida ishtirok etishda namoyon bo'ladi. Bo'lajak pedagoglarda XXI asrning asosiy tayanch ko'nikmalaridan biri hisoblangan, hamda kasbiy moslashuvchanlikni baholovchi asosiy mezon sifatida ta'riflanayotgan raqamli ko'nikmalarga ega bo'lishi uchun:

1. Tanlagan mutaxassislikni chuqur o'rganish va o'rgata olish;
2. Zamonaviy axborot almashish vositalari bilan ishlay olish;
3. Axborot texnologiyalari va qurilmalari bilan ishlash;
4. Tanlagan mutaxassislik, yo'nalish va fan bo'yicha bilim berishda zamonaviy vizual kontentlarni yaratish;
5. Internet saytlari, axborot olish va berishga mo'ljallangan platforma va sotsial tarmoqlarni tushunish;
6. Smm, sotsial marketing va sotsial menejment bo'yicha ijtimoiy tarmoqlar bilan ishlash qobiliyatiga ega bo'lish.

Raqamlashtirish jarayonida Internet saytlari, axborot olish va berishga mo'ljallangan platforma, ommaviy axborot vositalari bilan bir qatorda sotsial tarmoqlar telegram, facebook, instagram, twitter tarmoqlari ijtimoiy jarayonlarda keng qo'llanilmoqda. Bu kabi ijtimoiy tarmoqlar nafaqat axborot tarqatish balki axborot yaratish imkonini beradi.

Raqamli ta'limga o'tish zarurati bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida raqamli muloqot, raqamli o'qitish tizimi, raqamli adabiyotlar, raqamli axborotlar bilan ishlay olish, raqamli baholash ko'nikmalarini shakllantirishni talab etmoqda. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ushbu zamonaviy ko'nikmalarga ega bo'lish innovatsion talablar asosida maktablarda ta'lim berish va o'qita olish layoqatini oshiradi. Raqamli muloqot bu jamiyatda muloqot qilishning novator va komfort usuli bo'lib, insonlar bilan muloqot qilishda, fikr almashishda, bo'layotgan voqea xodisalarga o'z munosabatini bildirish imkoniyatini oshiradi. raqamli muloqot fikr almashishning innovatsion usuli bo'lib, bo'layotgan voqea xodisalarga nostandart va kreativ tarzda fikr bildirish imkoniyatini ta'lim oluvchi va ta'lim beruvchi obyektlarga taqdim etadi.

Zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida tashkil etilgan raqamli ta'lim bo'lajak pedagoglarga yangi axborotlar bilan ishlashga, jamoada erkin muloqot qilishga, mavjud muammolarni tahlillashga, yangi ma'lumotlarni o'rganishga va mustaqil tarzda shaxsiy ish rejasi va kun tartibini tuzishga ko'maklashadi.

Raqamlashtirishning pedagogik-psixologik imkoniyatlari bo'lajak pedagoglarga bilish darajasini umumlashtirish va ilmiy qiziqishlariga moslashtirish, dars jarayonida zamonaviy muloqot usullarini qo'llash, ta'lim protsessini innovatsionlashtirish va shaxsiy rivojlanishni kuchaytirishda muhim rol o'ynaydi.

Dissertatsiyaning **“Zamonaviy yondashuvlar asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida raqamli ta'lim ko'nikmalarini shakllantirish mexanizmi”** deb nomlangan ikkinchi bobida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida raqamli ta'lim ko'nikmalarini shakllantirishning metodik imkoniyatlari, raqamli ta'lim ko'nikmalarini shakllantirish mexanizmi, zamonaviy yondashuvlar asosida raqamli ta'lim ko'nikmalarini shakllantirishning innovatsion usullari tahlil etilgan. Raqamli ta'lim sharoitida individual yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarda o'z-o'zini baholash jarayonini samarali qo'llab-quvvatlash shaxsiy rivojlanishlarini kuzatish imkonini beradi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari bilan zamonaviy pedagogik yondashuv sifatida ta'kidlanayotgan individual ishlash mexanizmi asosida raqamli ta'limni tashkil etishda professor o'qituvchilar tomonidan quyidagi faoliyat amalga oshirilishi tavsiya etiladi:

- dars o'tishi rejalashtirilgan guruh talabalarini yaqindan tanish;
- guruh talabalarining umumiy bilish darajasi va qiziqishlarini aniqlash maqsadida raqamli platformalarda “talabanning shaxsiy portfoliosi”ni yaratish;
- raqamli platformalarda “talabanning shaxsiy portfoliosi”ga talabalar tomonidan yuklanadigan ma'lumotlarga talabanning erishgan yutuqlarini joylash;
- raqamli platformalarda “talabanning shaxsiy portfoliosi”ga talabanning shaxsiy ma'lumotlarini to'g'ridan to'g'ri joylash;
- talabanning mustaqil ta'lim jarayoni natijalarini ham joylash.

O'qituvchilar tomonidan talabalar bilan individual suhbatlashish va bu suhbat jarayonini ham raqamli tarzda tashkil etish natijasida talabalarni yaqindan tanish, ularning shaxsiy sifatlari, maqsadlari va murojaatlarini tahlil qilish imkonini oshiradi. Raqamli muloqot talabalar bilan ma'lumot almashish, hamda ularning talablarini tushunish imkoniyatini beradi. Raqamli ta'lim sharoitida bo'lajak pedagoglarda raqamli muloqot ko'nikmalarini shakllantiradi. Bo'lajak pedagoglarda raqamli muloqotni amalga oshirish natijasida ularning ehtiyojlari aniqlanadi, ehtiyojlarni to'g'ri bartaraf etish natijasida shaxsiy maqsadlar belgilanadi. Ushbu jarayon bo'lajak pedagoglar bilan individual yondashuv asosida raqamli ta'lim sharoitida raqamli muloqot natijasida amalga oshiriladi.

Raqamli ta'limni sifatli tashkil etish, raqamli ta'limning samaradorligi elektron platformalariga o'quv jarayoni bilan bog'liq ma'lumotlar, elektron resurslar, ta'lim oluvchiga taqdim etiladigan rasmiy hujjatlar o'z vaqtida joylanishi, hamda doimiy yangilab turilishi kerak. Raqamli ta'lim jarayonida talaba va o'qituvchi doimiy muloqot qilishi kerak. Har ikki tomon hamkorlikda faoliyat olib borsa, o'z vazifalarini ma'suliyat bilan bajarsa hamda bu jarayonda shaffoflik, tenglik, to'g'rilik tamoyillariga amal qilinishi raqamli ta'lim samaradorligini oshiradi.

Raqamli ta'lim jarayonida bo'lajak pedagoglarni quyidagi muammolarga qarshi immunitetini shakllantirishimiz lozim:

- bo'lajak pedagoglarda qog'oz variantda amalga oshiriladigan yozma nutq ko'nikmasining susayishi;
- bosma nashrlarni o'qish va hisoblash ko'nikmasining pasayishi;
- jamoa bilan yuzma-yuz muloqot qila olmaslik;
- shaxsiy fikrni bayon etishdan ko'ra tayyor ma'lumotlardan foydalanish;
- mustaqil ta'lim va boshqa nazorat topshiriqlariga ijodiy yondashishdan ko'ra tayyor ma'lumotlarni ko'chirish;
- axborotlar ichida antiaxloqiy ma'lumotlar xavfi.

Raqamli texnologiyalar tez suratlarda rivojlanib borayotgan hamda axborot almashuvining cheksizligi davrida bilim olayotgan talabalarda raqamli ta'lim ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha bahslar dolzarb masalaga aylandi. Mazkur masalalar bo'lajak pedagoglarda raqamli ta'lim ko'nikmalarini shakllantirishning zamonaviy modelini ishlab chiqishni taqozo etdi. Ushbu model 2.1-rasmda ifodalangan.

“Bo'lajak pedagoglarda zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida raqamli ta'lim ko'nikmalarini shakllantirish modeli”ning tarkibiy qismlari aniqlandi: nazariy, faoliyatga yo'naltirilgan va natija komponentlari. Modelning nazariy tarkibiy qismlarining mazmuni o'rganilayotgan muammo doirasidagi mahalliy va xorijiy tadqiqotchilarning ilmiy ishlari qiyosiy tahlillash asosida o'rganildi hamda raqamli ta'lim ko'nikmalariga mualliflik yondashuv ishlab chiqildi. Raqamli ta'lim ko'nikmalarining tarkibiy komponentlari tasniflandi. Tadqiqot natijalari universitetlarning raqamli ta'lim muhitini prognozlash, tashkil etish, boshqarish va konseptuallashtirish uchun ishlatilishi mumkin.

Modelning nazariy komponenti ya'ni kirish qismida raqamli ta'lim, raqamli ta'lim ko'nikmalari hamda tarkibiy qismlari aks ettirilgan. Raqamli ta'lim ko'nikmalari quyidagi komponentlarni o'z ichiga oladi:

Raqamli aloqa – internetdan ma'lumot qidirish, ushbu ma'lumotni ma'lum bir auditoriyaga taqdim etishning eng yaxshi usulini tanlash ko'nikmalari;

Kommunikativ ekspressivlik – bu raqamli ta'lim sharoitida shaxslararo munosabatlarga kirisha olish. Muhokamadagi mavzu bo'yicha o'z shaxsiy fikrini aniq ifodalash. Ma'lumotlarni joylashtirish va to'g'ri nutq tuzish, ma'lumot mazmunini sinchkovlik bilan ko'rib chiqish, xabarni yetkazish va onlayn muloqot davomida ko'zlangan natijalarga erishish.

Raqamli hamkorlik ko'nikmalari – jamoada umumiy maqsad sari samarali va o'zaro hurmat bilan ishlash hamda topshiriqlarni bajarish uchun umumiy mas'uliyatni o'z zimmasiga olish qobiliyati. Onlayn xizmatlar orqali bir-birlari bilan tegishli tajriba va ma'lumotlarni almasha olish. Raqamli hamkorlik ko'nikmalari har bir ishtirokchining tajribasidan kelib chiqib amalga oshiriladi.

Raqamli tanqidiy fikrlash qobiliyatlari – axborotlar haqida fikr va dalillarga asoslanib xulosa chiqarish qobiliyati. Tanqidiy fikrlash asosida onlayn axborot va muloqotlarni to'g'ri, foydali, saviyali kabi xususiyatlarni inobatga olib saralanadi.

Ijodiy raqamli ko‘nikmalar – vizual kontent yaratishda ta’lim maqsadlari va mazmunini uyg‘unlashtirish hamda onlayn vositalardan to‘g‘ri foydalanish ko‘nikmalari.

Raqamli muammolarni hal qilish ko‘nikmalari – muammoli vaziyatni tahlil qilish uchun raqamli texnologiyalardan foydalanish va muammoning yechimini topish.

Ayni paytda mehnat bozorida o‘zgarishlar ro‘y bermoqda, zamonaviy mehnat turlari va xizmat ko‘rsatish sohalari paydo bo‘lmoqda. Ish beruvchilar tomonidan bitiruvchilarning malakasiga bo‘lgan talablar o‘zgarmoqda. Bo‘lajak pedagoglarning ta’lim yo‘nalishiga qarab raqamli ta’lim ko‘nikmalari bir-biridan farq qiladi. Bo‘lajak pedagoglar uchun umumiy bo‘lgan raqamli ta’lim ko‘nikmalariga:

Raqamli vositalardan foydalanish, raqamli muloqot va hamkorlik, o‘zini o‘zi rivojlantirish, ijodiy va tanqidiy fikrlash, axborot va ma’lumotlarni yaratish va boshqarish.

Modelning faoliyat komponenti, ya’ni amalga oshirish algoritmidagi bo‘lajak pedagoglarning raqamli ta’lim ko‘nikmalarini shakllantirish usullari, vositalarini o‘z ichiga oladi. Modelning natija komponenti yakuniy, kutilgan natijalarni va bo‘lajak pedagoglarda raqamli ta’lim ko‘nikmalarini baholash vositalarini aks ettiradi.

Bo‘lajak pedagoglarda raqamli ta’lim ko‘nikmalarini shakllantirish modeliga bunday yondashish unga quyidagi xususiyatlarni beradi: noodatiylik, paydo bo‘lish, rivojlanish, uzluksizligi, o‘lchovlilik, sinergiya, moslashuvchanlik.

“Bo‘lajak pedagoglarda raqamli ta’lim ko‘nikmalarini shakllantirish modeli” ning nazariy komponenti mazmunida:

raqamli ta’lim tushunchasi tahlili;

raqamli ta’lim ko‘nikmalari ta’rifi;

raqamli ta’lim ko‘nikmalarining tarkibiy komponentlari;

raqamli ta’lim tamoyillari;

bo‘lajak pedagoglarning raqamli ta’lim ko‘nikmalarini shakllantirish belgilovchi omillar tahlil etildi. O‘quv jarayoni raqamli vositalar va raqamli kontentlar asosida tashkil etish talabalarning bilim olish va o‘rganishga bo‘lgan ishtiyoqini oshiradi. Raqamli ta’lim sifatini oshirishda raqamli vositalar va raqamli kontentlar bilan bir qatorda ijtimoiy tarmoqlar, internet platformalari, mobil ilovalar va ta’lim olishga mo‘ljallangan dasturlar imkoniyatlaridan foydalanish ijobiy samara bermoqda.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida raqamli ta'lim ko'nikmalarini shakllantirish modeli

Raqamli ta'lim – innovatsion o'qitish tizimi bo'lib, raqamli ta'limdan raqamli universitet formatiga o'tiladi. Raqamli resurs, raqamli vosita, raqamli o'quv-didaktik adabiyotlar, raqamli ta'lim jarayoni, raqamli baholash mexanizmlari asosida tashkil etiladi

Raqamli ta'lim ko'nikmalari - axborot bilan ishlash, jarayonlarni, loyihalarni, raqamli transformatsiya mahsulotlarini yaratish va boshqarish, texnologiyalardan pedagog sifatida funksional faoliyati davomida foydalanish, murakkab kasbiy muammolarni hal qilish

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida raqamli ta'lim ko'nikmalarini shakllantirish mazmuni

Raqamli universitet – raqamli ta'lim subyekti va obyektiga o'rtasidagi faoliyatini tashkil etadi, boshqaradi, nazorat qiladi, Raqamli resurslar, Raqamli platformalar asosida faoliyat olib boriladi

Raqamli ta'lim ko'nikmalari tarkibi – raqamli aloqa, raqamli vosita va resurslar bilan ishlash, Kommunikativ ekspressivlik, Raqamli hamkorlik, tanqidiy fikrlash, Ijodiy-kreativlik, muammolarni hal qilish

Raqamli sharoitda ta'lim beruvchi - bu zamonaviy ko'nikmalarga ega o'qituvchi. Pedagogik faoliyatida mustaqil tarzda o'zini o'zi rivojlantirib borishi, institutsional muhit ichida va tashqarisida ta'lim loyihalarini yaratishi, raqamli ta'lim ko'nikmalariga ega bo'lgan zamonaviy kadr

Raqamli ta'lim ko'nikmalarini shakllanish bosqichlari - qidirish, tanlash, foydalanish, loyihalash, yaratish, muloqot, prognozlash, diagnostikalash, yechim topish, xulosa qilish

Raqamli muhitda ta'lim oluvchilar tavsifi - raqamli texnologiyalar yordamida ta'lim oluvchilar XXI asr talabasi hisoblanib, yangi avlod vakillaridir

Raqamli ta'lim tamoyillari – maqsadlilik, integratsiya, to'laqonlilik, yaxlitlik, ochiqlik, qulaylik, erkinlilik

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida raqamli ta'lim ko'nikmalarini shakllantirish algortmi

Zamonaviy pedagogik yondashuvlar:
individual,
kompetensiyaviy,
akmeologik

Zamonaviy pedagogik faoliyat:
moderator,
fasilitator,
mentor,
kouch

vositalar:
vizual kontent,
raqamli poster,
mobil ilovalar

Baholash vositasi:
loyihalash faoliyati
talaba portfoliosi
Ta'lim blogeri

NATIJA: ZAMONAVIY YONDASHUVLAR ASOSIDA BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARIDA RAQAMLI TA'LIM KO'NIKMALARI shakllanadi

2.1-rasm. Bo'lajak pedagoglarda zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida raqamli ta'lim ko'nikmalarini shakllantirish modeli

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari kundalik hayotda foydalana oladigan, pedagogik maqsadlarni amalga oshirishga yordam beradigan dasturlarni "pedagogik dasturlar" deb nomladik hamda tipik xususiyalariga ko'ra quyidagi turlarga ajrattik:

Elektron darsliklar;

Badiiy asarlar;

Baholovchi;

Til o'rgatuvchi;

O'yin orqali ta'lim beruvchi;

Sport mashqlarini bajartiruvchi va tekshiruvchi;

San'at;

Musiqqa;

Loyihalovchi dasturlar;

Video tayyorlashni o'rgatuvchi dasturlar;

Rasmga olishni o'rgatuvchi dasturlar;

Oshpazlikni o'rgatuvchi dasturlar.

Mazkur raqamli dasturlar internet saytlarida shaxsiy domingiga ega bo'lib, foydalanuvchilarga xizmat ko'rsatishda qulaylik yaratish maqsadida mobil ilovalarni yaratishgan. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ta'limiy o'yinlar orqali bilim berishga asoslangan mobil ilovalar ham mavjud bo'lib, bu ta'limiy o'yinlarni quyidagicha guruhlarga ajrattik:

1. Matematik bilimlarni shakllantirishga doir ta'limiy o'yinlar;

2. Savod o'rgatish bilan bog'li ta'limiy o'yinlar;

3. So'z boyligini oshirishga yo'naltirilgan ta'limiy o'yinlar;

4. Til o'rganishga yo'naltiradigan ta'limiy o'yinlar;

5. Rasm chizishni o'rgatadigan ta'limiy o'yinlar;

6. Kasb-hunarlar haqida bilim beruvchi o'yinlar.

